

Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta'minlash haqida nizom

Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid qonunchilik hujjatlariga va Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashining universitetda sifatni ta'minlashga oid qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan va Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – universitet)da sifatni ta'minlashga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur nizom universitetning barcha tarkibiy tuzilmalari, professor-o'qituvchilari va xodimlarining sifatni ta'minlash bilan bog'liq vazifalari borasida aniq tushunchaga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida sifatni ta'minlashga doir prinsiplar va kutilgan natijalarni belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. **Toshkent davlat yuridik universitetining missiyasi** milliy qadriyatlarni chuqur anglaydigan, adolatga sodiq va tadqiqot orqali ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shadigan yuqori malakali yuridik va boshqa tegishli sohalardagi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

2. **Universitetning maqsadi** davlat va jamiyat oldida mas'uliyatni his qiladigan, huquqiy va axloqiy qadriyatlarni tushunib yetadigan, milliy va umuminsoniy prinsiplarni hurmat qiladigan va innovatsion tadqiqotlar hamda amaliyot orqali qonun ustuvorligi va samarali boshqaruvni faol targ'ib qiladigan yoshlarni tarbiyalashdir.

3. **Universitetning kelajakka qaratilgan asosiy maqsadi (vision)** dunyo miqyosida e'tirof etiladigan universitetga aylanishdir. Unda huquqiy va boshqa sohalarda ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalar ilg'or standartlar asosida olib boriladi. Bu bitiruvchilarga dinamik va inklyuziv akademik hamjamiyatni rivojlantirish, shu bilan birga, jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish hamda O'zbekistonda adolatli va farovon jamiyat barpo etish va mamlakatning barqaror kelajagi rivojiga hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

4. Abituriyentlar, ularning ota-onalari, talabalar, professor-o'qituvchilar, xodimlar hamda hamkorlar universitetda quyidagi qadriyatlarga amal qilishi va unga rioya qilishlari talab etiladi:

Shaxsga hurmat. Universitet uchun asosiy qadriyat inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlaridir. Har bir talaba, professor-

o'qituvchi va xodimning shaxsiyati hurmat qilinadi hamda ularning ijodiy va ilmiy salohiyatini oshirib borishlariga sharoit yaratib beriladi.

Halollik. Universitet faoliyatida, shu jumladan, professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bilan munosabatlarda halollikka qat'iy rioya etiladi.

Bilim. Universitet bugungi va kelajak uchun dolzarb bo'lgan bilimlarni yetkazishga intiladi. Universitet jamoasi yangi bilim va malakalarni o'zlashtirishga nisbatan ochiqdir.

Professional fazilatlar. Universitet o'z bitiruvchilarining yuqori darajadagi kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning mehnat bozori talablariga javob berishlariga intiladi.

Har qanday shaxsiy manfaat universitet missiyasi va qadriyatlaridan ustun bo'la olmaydi.

5. Universitetning sifatni ta'minlash tizimi universitetning akademik yetuklikka intilishga nisbatan sadoqatini ifodalaydi. Unga binoan, sifatni ta'minlash universitet faoliyatining barcha yo'nalishlarida, jumladan, ta'lim dasturlarini o'qitish, talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish va ilmiy tadqiqot faoliyatida universitet doirasida yaxlit yondashuv asosida olib borilishining muhimligi tan olinadi.

6. Mazkur nizomda sifatni ta'minlash bilan bog'liq mexanizmni batafsil tushunib yetish sifatni ta'minlash bilan bog'liq universitetning boshqa ichki hujjatlari bilan tanishib chiqishni talab etadi. Mazkur nizom asosida qabul qilinadigan universitetning boshqa ichki hujjatlari universitetda sifatni ta'minlashga nisbatan kompleks va yaxlit yondashuvning tarkibiy qismini tashkil etadi.

II bob. Asosiy tushunchalar

7. Universitet jamoasi tomonidan sifatni ta'minlash bilan bog'liq siyosatni bir xilda tushunish uchun sifatni ta'minlash bilan bog'liq atamalarga nisbatan quyidagi ta'riflardan foydalaniladi:

oliy ta'limda sifat– talabalarni ta'limda, shaxsiy rivojlanishda, karyera imkoniyatlarida muntazam ijobiy natijalarga erishishlari uchun universitet tomonidan ularni davlat, jamiyat hamda ish beruvchilarning asosli ehtiyojlarini inobatga olgan holda qo'llab-quvvatlab borish darajasi;

sifatni ta'minlash (quality assurance) – universitet faoliyatini tizimli asosda qayta ko'rib chiqish jarayoni bo'lib, u orqali tegishli yo'nalishlarda akademik standartlarga rioya etishga ishonch hosil qilinadi hamda tegishli nizomlar, jarayonlar va protseduralar orqali tegishli faoliyatda sifat, adolat va samaradorlik saqlab turiladi va takomillashtirib boriladi;

sifatni oshirish (quality enhancement) –talabalarning ta’lim olish jarayoni hamda universitetda ilmiy tadqiqot olib borishga qaratilgan muhitni yaxshilab borishga qaratilgan rejalarni shakllantirishda, rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda hamda amalga oshirilgan ishlarni baholab borishda dalillardan foydalanish;

akademik standartlar –davlat ta’lim standartlari, milliy malaka talablari hamda tashqi akademik baholash mezonlari, shu jumladan, Buyuk Britaniyaning Oliy ta’limda sifat kafolati bo’yicha agentligining (QAA) mutaxassislik talablari (subject benchmark statements) tizimi;

talabalarning ta’lim olish jarayoni (student learning experience) – talabalarning bilim olishiga, ko‘nikmalarining rivojlanishiga hamda xulq-atvorlarining shakllanishiga qaratilgan turli ko‘rinishdagi mashg‘ulotlar, muloqot, muhit va boshqa jarayonlar. Bu nafaqat auditoriya singari rasmiy, shuningdek, talabalar klublari, mustaqil ta’lim, bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash singari norasmiy kontekstni qamrab oladi.

manfaatdor tomonlar (stakeholders) – universitet va uning faoliyatiga bevosita qiziqish bildiradigan barcha shaxslar va guruhlar. Manfaatdor tomonlar ichki (talabalar, doktorantlar, professor-o‘qituvchilar, xodimlar) va tashqi (abituriyentlar, ota-onalar, bitiruvchilar, ish beruvchilar, tashkilotlar) manfaatdor tomonlardan iborat.

III bob. Universitetda sifatni ta’minlash bosqichlari

8. Universitet o‘z oldiga qo‘ygan missiyasiga to‘laqonli erishishga ishonch hosil qilish hamda ta’lim dasturlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyatini doimiy monitoring qilish, baholash va qayta ko‘rib chiqish orqali ta’lim imkoniyatlari va sifatini oshirib borish maqsadida o‘z faoliyatini doimiy yaxshilab borishga intiladi. Bunda universitet quyidagi **PDCA sikli**dan foydalanadi.

Rejalashtirish (Plan). Ushbu bosqichda tegishli yo‘nalishdagi muammo aniqlanadi yoki faoliyatni yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlar aniqlanadi, maqsadlar belgilanadi va ularni amalga oshirish uchun tegishli reja ishlab chiqilib, undagi vazifalar kimlar tomonidan qay tarzda amalga oshirilishi aniqlab olinadi.

Bajarish (Do). Mazkur bosqichda rejalarda nazarda tutilgan vazifalar amalga oshiriladi. Ushbu bosqich orqali yangi jarayonlar sinovdan o‘tkaziladi, yangi protseduralar amalga oshiriladi yoki amaldagi tizimga o‘zgartirish kiritiladi.

Tekshirib ko‘rish (Check). Bu bosqich “bajarish” bosqichida amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholashni nazarda tutadi. Bunda erishilgan natijalar kutilgan natijalarga nisbatan qiyoslanadi va kutilgan natijalarga erishish

holati baholanadi. Buning uchun tegishli ma'lumotlar (data) to'planadi va amalga oshirilgan ishning samaradorligini aniqlash uchun tahlil etiladi.

Amalga oshirish (Act). Ushbu bosqichda "tekshirib ko'rish" bosqichida aniqlangan holatlarga asosanib tegishli choralar ko'riladi. Agar maqsadlarga to'laqonli erishilgan bo'lsa, muvaffaqiyatli amaliyot standart amaliyot sifatida qo'llanishiga o'tiladi. Basharti maqsadlarga erishilmagan bo'lsa, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan rejalarga muayyan o'zgartishlar kiritiladi va bunda ish faoliyati "rejalashtirish (do)" bosqichidan qayta boshlanadi.

9. PDCA siklining har bir bosqichida manfaatdor tomonlar (stakeholders) ishtirok etadilar. Bunda manfaatdor tomonlarning sifatni ta'minlash siklida faol ishtiroki ta'minlanadi hamda tegishli jarayonlarni samarali amalga oshirish maqsadida ularning fikr-mulohazalari (feedback)dan doimiy tarzda foydalaniladi.

Universitet tegishli bosqichlarda manfaatdor shaxslarni jalb etish shakli, doirasi va muddatlarini mustaqil belgilaydi.

IV bob. Sifatni ta'minlash bo'yicha boshqaruv tizimi

10. **Kuzatuv kengashi.** Kuzatuv kengashi universitetning oliy organi bo'lib, universitetning sifatni ta'minlash haqidagi nizom hamda unga aloqador boshqa hujjatlarning to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qiladi.

11. **Universitet kengashi.** Universitet kengashi universitet boshqaruvi bo'yicha umumiy siyosatni yurituvchi kollegial organdir. Universitet kengashi sifatni ta'minlash bo'yicha umumiy mas'uliyatga ega bo'lgan asosiy organ hisoblanadi.

12. **Talabalar.** Talabalar faolligini ta'minlash strategiyasi talabalarga ta'lim olish jarayonini yaxshilashga, jumladan, sifatni ta'minlash tizimiga hissa qo'shishga qaratilgan imkoniyatlarni yaratib beradi. Bu o'z ichiga rasmiy tarzda Talabalar assotsiatsiyasi orqali talabalar vakilligini ta'minlash, modul va ta'lim dasturlarini talabalar tomonidan baholash, shuningdek, universitet kengash, qo'mita va komissiyalarida hamda turli so'rovlarda talabalarning faol ishtirok etishini, norasmiy tarzda esa professor-o'qituvchilar va xodimlarning talabalar bilan muloqotini tashkil etadi.

13. **Talabalar assotsiatsiyasi.** Talabalar assotsiatsiyasi universitet talabalarining rasmiy vakillik organidir. Uning a'zolari universitetning turli qo'mitalari a'zolaridir. Universitet rektori Talabalar assotsiatsiyasi vakillari bilan har semestrda kamida bir marotaba uchrashuv tashkil etib, ular bilan talabalarning ta'lim olish jarayoni va boshqa masalalarga doir masalalarni muhokama etadi.

14. **O'qitish va ta'lim olish kengashi.** O'qitish va ta'lim olish kengashi professor-o'qituvchilardan iborat maslahat guruhidir. O'qitish va ta'lim olish

bo'yicha kengash Universitet kengashiga O'qitish, ta'lim olish va assesment strategiyasini amalga oshirishda maslahat va tavsiyalarni beradi.

15. Talabalarni qo'llab-quvvatlash kengashi. Talabalarni qo'llab-quvvatlash kengashi talabalarning saylanadigan vakillari, professor-o'qituvchilar va xodimlardan iborat maslahat guruhi bo'lib, Universitet kengashiga universitet miqyosida talabalarning o'quv rejadani tashqari mashg'ulotlari hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq maslahat va tavsiyalarni beradi.

16. Sifatni ta'minlash kengashi. Sifatni ta'minlash kengashi universitetning turli tarkibiy tuzilmalar vakillari va boshqa manfaatdor shaxslardan iborat bo'lib, u universitetda sifatni ta'minlash bilan bog'liq nizomlarni ishlab chiqish va universitetda o'qitish, ta'lim olish, talabalarni qo'llab-quvvatlashni yuqori standartda olib borishga qaratilgan jarayonlarning doimiy tarzda yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Sifatni ta'minlash kengashi sifatni ta'minlashning ichki va tashqi jarayonlari natijalarini ko'rib chiqib Universitet kengashiga tegishli tavsiyalarini beradi.

17. Akademik halollik kengashi. Akademik halollik kengashi universitetda o'quv adabiyotlarini yaratish bilan bog'liq yuqori standartlarni joriy etish va ularga rioya qilinishini ta'minlaydi. Kengash o'quv adabiyotlari va talabalarning yozma ishlarida akademik halollik qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi hamda akademik qoidabuzarlik sodir etilgan holatlarda o'rnatilgan tartibda tegishli choralarni ko'radi.

18. Tadqiqot kengashi. Tadqiqot kengashi Universitet kengashiga tadqiqot olib borish siyosati va mazkur yo'nalishdagi ustuvor vazifalar bo'yicha tavsiyalar beradi, tadqiqot ishlarining sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi, universitet tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini chop etish ishlarini muvofiqlashtiradi, tadqiqot natijalarini rag'batlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi, tadqiqot etikasiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

19. Fakultet va talabalar qo'mitasi. Dekan talabalar vakillari bilan uchrashib, talabalarning ta'lim olish jarayoniga ta'sir etadigan masalalarni muhokama qiladi va o'z vakolatlari doirasida tegishli chorani ko'radi.

20. Kafedra va talabalar qo'mitasi. Har bir kafedra professor-o'qituvchilari talabalar vakillari bilan uchrashib, talabalarning ta'lim olish jarayoniga ta'sir etadigan masalalarni muhokama qiladi va o'z vakolatlari doirasida tegishli chorani ko'radi.

21. Dekanlar. Dekanlar muayyan kafedralarning faoliyati uchun umumiy mas'uldirlar. Ular ushbu kafedralarning o'quv va ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida uzoq muddatli strategik rivojlanishi, shuningdek, ushbu yo'nalishlarda sifat bilan bog'liq kundalik masalalarning hal etilishini nazorat qilishga mas'uldir.

22. **Kafedralar.** Kafedralar o'qitish va tadqiqot olib borishga mas'ul bo'lgan professor-o'qituvchilardan iboratdir. Kafedra a'zosi bo'lgan barcha professor-o'qituvchilar kundalik faoliyatini universitetning sifatni ta'minlash bilan bog'liq hujjatlari va protseduralarga muvofiq amalga oshirishga mas'uldirlar.

23. **Ma'muriy tarkibiy bo'linmalar.** Ma'muriy tarkibiy bo'linmalar universitetning sifatni ta'minlash tizimini yaratish va amalga oshirishda muhim o'ringa ega. Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi, Qabul jarayonini tashkil etish bo'limi, O'quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi), Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Ilmiy boshqarma, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, Transformatsiya bo'limi kabi ma'muriy tarkibiy bo'linmalar shular jumlasidandir.

Bunda:

Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi universitetda sifatga doir hujjatlarning o'z vaqtida ijro etilishini monitoring qiladi, tarkibiy tuzilmalar bilan hamkorlikda universitet strategiyasi loyihasini tayyorlaydi, universitet tashkiliy strukturasining samaradorligini baholaydi va qayta rejalashtiradi, universitet faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq indikatorlarni ishlab chiqadi, ularga erishish holatini monitoring va tahlil qiladi;

Qabul jarayonini tashkil etish bo'limi universitetga o'qishga kirish uchun ariza topshirish va qabul bilan bog'liq jarayonlar uchun mas'uldir;

O'quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) o'quv jarayonini muvofiqlashtirish, xususan, akademik kalendarni tuzish, o'quv rejalari va sillabuslarni shakllantirish, oraliq va yakuniy nazoratni tashkil etish, diplom topshirishga mas'uldir;

Ma'naviyat va ma'rifat markazi universitet jamoasi tomonidan rioya qilinishi majburiy bo'lgan odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish va unga rioya etilishini nazorat qilish, talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidor va intilishlarini qo'llab-quvvatlash borasida zarur sharoitlar yaratish, universitetda talabalarning o'zini-o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish, talabalarga diplom topshirish tantanali marosimlarini tashkil etishga mas'uldir;

Ilmiy boshqarma ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun sharoitlar yaratish va uning sifatli amalga oshirilishini muvofiqlashtirishga mas'uldir;

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi universitetda akademik standartlarga rioya etilishini umumiy nazorat qilish va ta'minlash uchun mas'uldir. Bo'lim ta'lim dasturlarini yaratish, ma'qullash, ta'lim dasturlarining yillik va davriy monitoringini olib borish bilan bog'liq nizomlarni ishlab chiqadi va ijrosini ta'minlaydi hamda talabalar tomonidan modullar va ta'lim dasturlarini baholashni tashkil etadi;

Transformatsiya bo'limi universitetning xalqaro akkreditatsiyasi bilan bog'liq ishlarini muvofiqlashtirishga mas'uldir. Bo'lim Yevropa oliy ta'lim

makonida sifat kafolati bo'yicha standartlar va yo'riqnomalari (ESG) hamda xalqaro akkreditatsiya agentliklari talablariga mos keladigan nizomlarni ishlab chiqish, joriy etish va monitoring qilishda muhim o'ringa ega. Bunda Transformatsiya bo'limi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi va boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan yaqindan ishlaydi.

V bob. Sifatni ta'minlashning asosiy jarayonlari

24. Universitet faoliyatiga daxldor muhim, shu jumladan, o'quv va ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish va olib borish bilan bog'liq masalalar bir qator strategik hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, universitet strategiyasi, o'qitish, ta'lim olish va assesment strategiyasi, mulk va resurslarni taqsimlash strategiyasi va rejasi, talabalarni sifatni ta'minlash jarayoniga jalb etish haqida nizom shular jumlasidandir. Universitet ushbu hujjatlarning ijrosini muvaffaqiyatli tarzda ta'minlash uchun PDCA siklining bir qismi sifatida sifatni ta'minlashning ushbu bo'limda nazarda tutilgan bir qancha jarayonlarini amalga oshiradi.

25. **Ta'lim dasturini ishlab chiqish va ma'qullash.** Universitet yangi ta'lim dasturlarini Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ma'qullash to'g'risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Ushbu nizom yangi ta'lim dasturlari universitetning missiyasiga mos kelishi, milliy ta'lim va bozor ehtiyojlariga javob berishi, universitetning kutgan natijalariga muvofiq keladigan sifat standartiga muvofiq kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, nizom yangi ta'lim dasturlari oliy ta'limda davlat ta'lim standartlari hamda tegishli oliy ta'limni boshqaruvchi va akkreditatsiyalovchi tashkilotning talablariga muvofiq kelishi talabini o'rnatadi. Bundan tashqari, ushbu nizom ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda milliy malaka ramkasi hamda tashqi mezon sifatida Buyuk Britaniyaning Oliy ta'limda sifat kafolati agentligi (QAA)ning mutaxassislik sohalari bo'yicha minimal talabalari (**QAA UK Subject Benchmark Statements**)dan foydalanish tartibini belgilaydi.

26. **Ta'lim dasturlari profillari (Program specifications)ni yaratish va takomillashtirish.** Har bir ta'lim dasturi uchun ta'lim dasturi profili (Program specification) yaratiladi hamda uning asosida ta'lim dasturini o'qitish, baholash, monitoring qilish va qayta ko'rib chiqish amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturi profillari professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar, ichki va tashqi baholovchilar, professional va tegishli vakolatli idoralar uchun ochiqdir. Ta'lim dasturi profili ta'lim dasturi maqsadi, ta'lim dasturidan kutilgan natijalar, ta'lim dasturi bo'yicha o'qitish metodlari, natijalar bo'yicha assesment va boshqa muhim ma'lumotlarni qamrab oladi.

Ta'lim dasturi profillari ta'lim dasturiga yoki ta'lim dasturidan kutilgan natijalarga (TDKN) o'zgartishlar kiritilganida qayta yangilanadi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshqa tegishli tarkibiy tuzilmalar bilan hamkorlikda ta'lim dasturi profillarini yaratish, takomillashtirish va Universitet kengashiga ma'qullash uchun kiritadi.

27. Professor-o'qituvchilarning darslarini o'zaro kuzatishi. Toshkent davlat yuridik universitetida o'qitish, ta'lim olish va assesment strategiyasi universitetning ta'lim berishga nisbatan yondashuvini belgilaydi. Strategiyani barqaror va samarali amalga oshirish, shu jumladan, universitetning o'qitishga nisbatan yondashuvini ta'minlash maqsadida bir qancha sifatni ta'minlash mexanizmlari, xususan, professor-o'qituvchilarning darslarni o'zaro kuzatishi joriy etiladi. Professor-o'qituvchilarning darslarni o'zaro kuzatishi haqidagi nizom darslarni kuzatish bilan bog'liq batafsil shartlarni belgilab beradi. Bunga ko'ra professor o'qituvchilar bir-birlarining darslariga nisbatan O'qitish, ta'lim olish va assesment strategiyasiga muvofiq keluvchi konstruktiv fikr-mulohaza (feedback)ni bildiradilar.

28. Modullarni va ta'lim dasturini baholash. Universitetda keng qamrovli ta'lim dasturi va modullarni baholash tizimi amal qiladi. Har bir o'quv yilining oxirida talabalar o'rtasida ularning ta'lim dasturlari haqida fikrlarini olish uchun so'rov o'tkaziladi va har bir semestr oxirida talabalarning o'zlashtirgan (o'zlashtirayotgan) modullari haqidagi fikrlarini olish uchun so'rov o'tkaziladi. So'rov natijalari fakultet miqyosida tegishli mas'ul xodimlar va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan tahlil qilinadi.

29. Yillik va davriy monitoring. Universitet barcha ta'lim dasturlari va akademik hamda ma'muriy tarkibiy bo'linmalar faoliyatining yillik va davriy monitoring qilinishini ta'minlaydi. Buning batafsil tartibi Yillik va davriy monitoring to'g'risidagi nizomda tartibga solinadi. Nizomda quyidagi muhim jihatlar qamrab olinadi:

O'quv yilining oxirida ta'lim dasturlarining yillik monitoringini o'tkazish. Ta'lim dasturlari o'quv yilining oxirida monitoringdan o'tkaziladi va atroflicha tahlil etiladi. Bunda har bir ta'lim dasturi fakultet miqyosida chuqur refleksiya o'tkaziladi. Ushbu jarayonga rioya qilish Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan alohida nazoratga olinadi. Monitoring natijalari yuzasidan bo'lim tomonidan Universitet kengashiga axborot kiritiladi.

Ta'lim dasturlarining yillik monitoringida turli ma'lumotlar, xususan, talabalarning fikr-mulohazalaridan tortib boshqaruvga doir ma'lumotlar (ta'lim dasturiga qabul qilinganlar, keyingi o'quv yiliga muvaffaqiyatli o'tganlar va muvaffaqiyatga erishish darajasiga doir ma'lumotlar) va ta'lim dasturi bo'yicha

professor-o'qituvchilarning reflektiv fikr-mulohazalariga asoslangan ma'lumotlar tahlil etiladi.

Davriy monitoring. Universitet har 5 yilda bir marotaba ta'lim dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish uchun ularni davriy monitoringdan o'tkazadi. Ta'lim dasturini davriy monitoringdan o'tkazish Ta'lim sifatini nazorat qilish va O'quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) tomonidan alohida nazorat qilinadi.

Ta'lim dasturlarini davriy monitoring qilish talabalar, ish beruvchilar va tajribaga ega universitet bitiruvchilari o'rtasida so'rov va muhokamalar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib ta'lim dasturlari takomillashtiriladi va Universitet kengashi tomonidan ma'qullanadi.

Ma'muriy tarkibiy bo'linmalar faoliyatining yillik monitoringi. Universitetning ma'muriy tarkibiy bo'linmalarining faoliyati o'quv yilining oxirida ularning yillik rejalarda nazarda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishini baholashdan o'tkazish orqali yillik monitoringdan o'tkaziladi. Bu jarayon har bir ma'muriy tarkibiy bo'linma kesimida umumiy maqsad va vazifalar hamda tegishli indikatorlarga tayangan holda o'zini o'zi baholash mashqini bajarish orqali amalga oshiriladi. Har bir ma'muriy tarkibiy bo'linma qo'yilgan har bir vazifani bajarish natijalarining bahosi, xulosa va navbatdagi yil uchun qo'yilgan vazifalarni yanada samaraliroq bajarish uchun rejalarni qamrab olgan shaklni Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasiga keyinchalik Universitet kengashiga umumlashgan axborot kiritish uchun topshiradi. Ma'muriy tarkibiy bo'linma faoliyatini yillik monitoringdan o'tkazish tartibi Yillik va davriy monitoring haqidagi nizom va boshqa ichki hujjatlar, shu jumladan, Talabalarni qo'llash-quvvatlash haqidagi nizom bilan tartibga solinadi.

30. Professor-o'qituvchilar va xodimlar faoliyatini yillik sarhisob qilish (annual performance review). Universitet har o'quv yilining yakunida professor-o'qituvchilar va xodimlar faoliyatining yillik sarhisobini amalga oshiradi.

Professor-o'qituvchilar faoliyatining yillik sarhisobini o'tkazish kafedra mudirlari tomonidan muvofiqlashtiriladi. Professor-o'qituvchilar faoliyatining yillik sarhisobi natijalari kafedra mudirlari, tegishincha fakultet dekanlari va Kadrlar bo'limi tomonidan tahlil etiladi.

Universitet xodimlari faoliyatining yillik sarhisobini o'tkazish tegishli ma'muriy tarkibiy bo'linmaning boshlig'i tomonidan muvofiqlashtiriladi. Xodimlar faoliyatining yillik sarhisobi natijalari bo'lim boshliqlari, tegishli prorektorlar va Kadrlar bo'limi tomonidan tahlil etiladi.

Bu universitetga professor-o'qituvchilar va xodimlar bilan ularning rivojlanishiga qaratilgan muloqotni olib borish imkoniyatini beradi. Ushbu muloqot belgilangan maqsad va vazifalarga erishilganlik darajasi hamda talabalarning

o'qitish, akademik qo'llab-quvvatlash hamda umumiy ta'lim olish tajribalariga ta'sir qiluvchi fikr-mulohazalari tahliliga asoslangan holda olib boriladi.

31. Jamoatchilik axboroti auditini o'tkazish. Universitetning omma uchun e'lon qilinadigan ma'lumotlarni boshqarishga nisbatan yondashuvini belgilab beruvchi Jamoatchilikka ochiq bo'lgan ma'lumotlar to'g'risidagi nizom qabul qilinadi. Ushbu nizom jamoatchilik uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni yaratish, ma'qullash, monitoring qilish va ko'rib chiqishni tartibga soladi. Shuningdek, nizomda ma'lumotlarga egalik qilish, ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari, bunda tuzilmaviy va shaxsiy javobgarlik masalalari tartibga solinadi. Nizomning asosiy talabi tegishli tarkibiy tuzilma tomonidan universitetning jamoatchilikka ochiq bo'lgan ma'lumotlarni jamoatchilik axboroti auditidan o'tkazish hisoblanadi.

VI bob. Manfaatdor tomonlarni sifatni ta'minlash jarayoniga jalb qilish

32. Universitet sifatni ta'minlashga ichki va tashqi manfaatdor tomonlarni jalb qilishga intiladi. Jumladan, bu Talabalar assotsiatsiyasi orqali talabalarning fikr-mulohazalarini olish, turli forumlar va so'rovlar o'tkazish, qo'mitalarda talabalarning ishtirokini ta'minlash va ushbu nizomning IV bobida keltirilgan boshqa mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu mexanizmlar talabalarni universitet boshqaruviga jalb etish bo'yicha strategiyada batafsil tartibga solinadi. Bunday muloqotga universitetda sifatni ta'minlashga muhim hissa qo'shuvchi vosita sifatida qaraladi. Xususan, bu keng tatbiq etish uchun yaxshi amaliyotni va takomillashtirish kerak bo'lgan sohalarni aniqlab olishda yordam beradi. Shu tarzda manfaatdor taraflarning fikr-mulohazalari ushbu nizom bilan o'rnatilgan sifatni ta'minlash mexanizmlarining muhim va ajralmas qismini tashkil etadi.

33. Ichki sifatni ta'minlashda tashqi ekspertlarning tajribalaridan foydalanish. Universitet ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali bo'lishiga erishish tashqi ekspertlarning tajribalarini tegishli jarayonlarga integratsiya qilishni talab etishini tan oladi. Universitet bu yondashuvga sodiq qoladi va shundan kelib chiqib tashqi ekspertlarning tajribasidan keng foydalanadi. Bu asosan quyidagi yo'nalishlarda kechadi:

Maslahat kengashlari. Universitetda fakultet dekanlari huzurida tegishli strategiyani ishlab chiqish, ta'lim dasturlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash va ularning samarali monitoringiga hissa qo'shish uchun ish beruvchilar, bitiruvchilar va tegishli hollarda davlat idoralari va vazirliklar vakillarini (shuningdek, xodimlar va talabalarni) o'z ichiga olgan Maslahat kengashlari tuziladi.

Nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik. Universitet xorijiy ekspertlarni jalb etishda universitetga moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa yoʻnalishlarda koʻmaklashuvchi nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan yaqin aloqalarni olib boradi. Bu tashqi sifat kafolati boʻyicha agentliklar tomonidan oʻtkaziladigan treninglar va universitet tomonidan taʼlim dasturlari va modullarning natijalarini ishlab chiqish va oʻqitish, taʼlim olish boʻyicha strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro ekspertlardan foydalanishni oʻz ichiga oladi.

VII bob. Tashqi sifatni taʼminlash

34. Universitetning keng qamrovli ichki sifatni taʼminlash tizimidan tashqari universitet sifatni taʼminlash boʻyicha davlat organlari, tashqi agentliklar va tashkilotlar bilan konstruktiv hamkorlik orqali oʻz faoliyatini takomillashtirib borishga intiladi. Bular quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Vazirlik oliy taʼlim davlat taʼlim standartlari va malaka talablarini ishlab chiqishni taʼminlaydi. Universitetni attestatsiya va akkreditatsiyadan oʻtkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik taʼlimni tahlil qilib boradi va uni takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqadi.

35. **Oliy taʼlimda sifat kafolati agentligi (QAA) (Buyuk Britaniya)** bilan hamkorlik universitetning strategik ustuvor vazifasidir va u bilan xalqaro akkreditatsiyadan oʻtish maqsadida hamkorlik olib boradi.

VIII bob. Yakunlovchi qoidalar

36. Universitetni xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlashda Yevropa oliy taʼlim makonida sifat kafolati boʻyicha standartlar va yoʻriqnomalar (ESG) (2015)ga tayangan holda tegishli ishlar olib boriladi.

Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). (2015). https://www.enqa.eu/wp-content/uploads/2015/11/ESG_2015.pdf

37. Barcha professor-oʻqituvchilar va xodimlar ushbu nizomga rioya qilishlari va boshqa har qanday sifatni taʼminlash jarayonlarini yaratishda undan asos sifatida foydalanishlari shart.

38. Ushbu nizom kamida uch yilda bir marotaba qayta koʻrib chiqiladi va zaruratga koʻra tegishli oʻzgartish hamda qoʻshimchalar kiritiladi.

Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta'minlash bo'yicha kollegial tuzilmalarning CHIZMASI

